

KULOLCHILIK BUYUMLARINING O'RTA OSIYODA PAYDO BO'LISHI VA O'ZBEK MAKTABLARINING XUSUSIYATLARI

Sobirov Sardor Alisher o'g'li

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik
tarixi davlat muzeyining Amaliy san'at va
etnografiya ilmiy bo'limi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda sopol buyumlarning paydo bo'lishi, uning turlari, rivojlanish bosqichlari tadqiq etilgan. Shuningdek, kulolchilik maktablarining shakllanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan.

Annotation: In this article, the origin of pottery in the Central Asia and its stages of development are explored. Additionally, the schools of Uzbek ceramics and their unique characteristics are analyzed in detail.

Аннотация: В этой статье исследуется происхождение гончарного искусства в Центральной Азии и этапы его развития. Кроме того, подробно анализируются школы узбекской керамики и их уникальные особенности.

Kalit so'zlar: Joytun madaniyati, lenta uslubi, kulolchilik charxi, Oks sivilizatsiyasi, Temuriylari davri, birinchi sirlangan sopollar, Rishton tuproq.

Ключевые слова: Джейтунская культура, метод налепа, гончарный круг, Окская цивилизация, династия Темура, первая глазурованная керамика, Риштанская глина.

Key words: Jeytun culture, coiling Method, pottery wheel, Oxus civilization, Timur dynasty, the first glazed ceramics, Rishton soil.

O'zbekiston (1991-yil 31-avgust) mustaqillikka erishgandan so'ng, yurtimizning haqqoniy va xolisona tarixini yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz va tarixining tag - tomirigacha nazar tashlaymiz", - deb ta'kidlaydi¹.

¹ Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.,1998. B-18.

O'zbek xalq amaliy san'atining eng muhim yo'nalishlaridan biri bu- kulolchilikdir. O'zbekiston kulolchilik tarixi paydo bo'lishidan to hozirgi zamon bosqichigacha bo'lgan davr kulolchilik rivojlanishini o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, ushbu davr mobaynida yashab ijod qilayotgan kulollar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishish, ularni tahlil etish va taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Tuproq - eng asosiy kulolchilik unsuri bo'lib, hunarmandlar loydan kosa, piyola, tovoq, ko'za, lagan xurmacha, xum, tandir va qurilish materiallari yasashgan. Kulolchilik sohasi bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanishadi. Ammo ular yasash texnologiyasi, tuproqlari bilan bir-biridan farq qiladi. Yaqin Sharqda odamlar neolit davri boshlaridan boshlab oziq-ovqat saqlash uchun sopol idishlarni yasashni boshlaganlar. Dastlab bu sohada faqat ayollar shug'ullanishgan. O'rta Osiyoda dastlabki sopollar arxeologlar tomonidan Joytun madaniyatidan (Turkmaniston) topilgan. Ular lenta uslubidan foydalanib, buyumlarni yasashgan va gulxanda qizdirib pishirganlar². Bronza davriga kelib kulolchilik charxi Mesopatamiyada yaratildi. O'rta Osiyoda esa kulolchilik charxidan yasalgan sopol buyumlarini Oks sivilizatsiyasining (O'zbekiston, Afg'oniston va Turkmaniston) Oltintepa yodgorligidan dastlab topilgan. Milodiy VIII-XII asrlarda kulolchilik sohasi yangi bosqichga ko'tarildi. Ya'ni ustalar sopollarning sifatini va chidamliligini oshirish uchun maxsus ishqor moddasidan foydalanish sirlash texnikasini qo'llay boshlaydi. Arxeologlarning Afrosiyob yodgorligidagi qazishma ishlari davomida sirlangan sopollar topib o'rganilganligi buning isbotidir. XIII asrda mo'g'ullar bosqini sababli O'rta Osiyoda bir qancha shaharlar vayron qilindi. Natijada barcha mohir ustalar yo qatl etildi yo Mo'g'ulistonga olib ketildi. Temuriylar davriga kelib esa kulolchilik tez sur'atda qayta rivojlandi. Amaliy san'atni rivojlanishida Temuriy hukmdorlarning xizmati alohida ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyoning 3 xonlikka - Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketishi va xalqaro aloqalari susayganligi sababli kulolchilik sohasi hamma joyda ham birdek rivojlanmadi. O'zbek sopol buyumlari ikki asosiy turlarga bo'linadi: birinchisi-kuydirilgan, sirlanmagan qizg'ish idishlar, ikkinchisi-sirlangan va guldor sopollar. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'zbekistonda to'laqonli kulolchilik maktablari shakllandi: Farg'ona (asosiy markazlari-Rishton, G'urumsaroy), Buxoro-

² Рыбакова.Б.А.Неолит Северной Евразии.М.,1996. Б-91

Samarqand (asosiy markazlari - Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari- Madir, Kattabog' qishloqlari). Kulolchilik maktablari biri-biridan o'ziga xos badiiyligi, bezaklar rangi va nishlanish uslubi bilan farq qiladi. Ammo XX asrning 80-yillarida kulolchilik markazlariga bo'lgan e'tibor bir muncha susaydi. Mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston an'anaviy qadriyatlarga e'tiborni qaratilishi bu sohaning rivojlanishini ta'minladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida an'anaviy amaliy san'atni rivojlantirish uchun "Kulolchilik ko'rgazmasi" (Respublika yarmarkasi) tashkil etildi. 1995-yildagi 1-Respublika yarmarkasi (BMTning 50 yilligiga bag'ishlandi) tashkil etildi. Ushbu yarmarkada barcha kulolchilik maktablarining vakillari ishtirok etdi. Ustalardan R.Zuhurov (Denov), M.Turopov (G'urumsaroy), I.Komilov (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullayevlar (G'ijduvon), Namoz va No'mon Obloqulovlar (Urgut), R.Matchonov (Xorazm), A.Raximov (Toshkent) maxsus tayyorlangan "Usta guvohnomasi"ga sazovor bo'ldi.

Qadimiy kulolchilik sanoatining eng qadimgi markazlaridan biri bo'lgan Xorazm neolit davridan beri rivojlanib kelmoqda. Xorazm kulolchilik maktabi o'zining milliy xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Sopollardagi naqshlar asosan handasiy va o'simliksimon naqshlardan iborat bo'lib, sopol buyumlarining markazida arabcha va girihiy shakllar tushirish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Xorazmning kulolchiligida moviy, ko'k, zangori va oq ranglarining majmuasi ustuvorlik qiladi³. Chunki Xorazm ustalari qadimdan noodatiy texnologiyasiga ega bo'lishgan. Ular sopol buyumlarni sirlash uchun ustalar cho'lda yozning jazirama issiq oylarida chag'on o'simligini to'plab yoqishgan va olib kelishgan. Bundan tashqari "qora o'roq" o'simligini shiraga to'lgan paytida yashil patina yoqib kulidan ishqor tayyorlangan. Shuning uchun ham bu ishqor siri ostida sariq va qizil ranglar yo'qolib ketadi, moviy – zangor ranglar esa nafis tovlanadi. Hozirgi paytda xorazmda mahalliy kulollar ishqor siri o'rniga maydalangan shisha ishlatish bilan birgalikda tayyor qo'rg'oshinli sirdan foydalanishadi. Rang-barang gamma yordamida soddaroq mavzularda yirik geometrik va o'simlik gullarini chizishadi. Usta R.Matchonov (Madir qishlog'i) asosan sopol buyumlaridan san'at asarlarini yaratishda to'q rangdan, bezaklarida esa havorang yoki

³ Boboyeva.Z.A.Kulolchilik maktablari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.2024. B-83

to‘q tuslilik ustunlik qiladi. S.Otajonovning (Kattabog‘ qishlog‘i) sopol buyumlarida oq angobdan foydalaniladi.

Samarqand kulolchilik maktabi naqshlarining takrorlanmas xususiyati, nafisliligi, qo‘rg‘oshinli sir va sarg‘ish-yashil, jigarrang bo‘yoqlar bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Sopol idishlarda islmiy naqshlardan-anor mevasi, gullab turgan shoxchalar tasvirlanadi. Xalq ustalari mo‘yqalamda naqsh chizish bilan birga o‘yma, kesma, bosma naqshdan foydalanishgan va hozir ham foydalanib kelishmoqda. “Afrosiyob sopoli” an‘analari asosida sopol buyumlarda o‘simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi va handasiy naqshlar ham ba’zida uchrab turadi. Urgut, Denov ustalari sopollarga naqsh berishda chizma uslubini ko‘p qo‘llaydilar. Samarqand kulolchilik maktabini yana bir xususiyatlaridan biri sopol terrakotalar, xushtak va o‘yinchoqlar ishlanadigan markazning borligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida bir qancha terrakota idishlar va sopol buyumlar ko‘rgazmaga qo‘yilgan. Ular “Ajdar”, “Guldon”, “G‘oz” namunalaridir.

Rishton O‘zbekistondagi qadimiy kulolchilik markazlaridan biridir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rishton aholisining deyarli barchasi kulolchilik bilan shug‘ullangan. Rishton kulolchilik maktabi nafaqat muhim ahamiyatga ega, balki Farg‘ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlarini, jumladan G‘urumsaroy, Chorku, Konibodom va boshqa shu kabi markazlarni rivojlanishida kuchli ta’siri bo‘lgan. Bunga sabab bu tumanda sopol idishlar yasash uchun loyning o‘ziga xos turi mavjudligi edi. Ya’ni qizil-sariq rangdagi ajoyib loy Rishtonning deyarli barcha hududlarida uchraydi va ustalar 1-1,5 metr chuqurlikdagi yerlardan qazib olishadi. Kulollar bo‘yoqlar, kvars qumi, o‘tga chidamli gil Rishton yaqinidagi G‘unchiroq, Chorku, Laklon, Haydarkon va boshqa tog‘lardan qazib olishgan. Rishton idishlari asosan o‘zining yorqin ko‘k va moviy rangdagi sirlangan sopollari, shuningdek, oq fonga erkin chizilgan “qalami” naqshlari bilan boshqa kulolchilik markazlardan ajralib turadi. Sopol buyumlar markazida islmiy naqshlar ustunlik qilgan. Rishtonlik ustalarning qadimiy an‘analaridan biri hali yaxshi qurib ulgurmagan sopolga naqshlarni chizishgan va xumdonda pishirib olishgan.

G‘ijduvon kulolchiligi (Buxoro viloyati) noodatiy yorqin gul naqshlari bilan dunyoga ma’lum. G‘ijduvon maktabining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri yorqin va jonli ranglar

hisoblanib, gul naqshlarida Rishton kulolchiligiga o'xshab odatda yorqin gullar, olma, uzum va boshqa o'simliksimon naqshlar tasvirlanadi. 1940-yillarda G'ijduvonda 40 dan ortiq kulolchilik ustaxonalari faoliyat yuritgan bo'lib, hozirgi kunda Narzullayevlar sulolasi hali ham o'z an'alarini davom ettirib kelmoqda. G'ijduvon kulolchiligi atrofidagi sirdan hosil bo'lgan tomchilari bilan boshqa markazlardan ajralib turadi. Boshqa maktablarda uchramaydigan bu uslub-xalqimizning: "Toma-toma ko'l bo'lur", - degan naqlining isbotidek go'yo.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki O'rta Osiyoda kulolchilik sohasi neolit davridan beri rivojlanib kelmoqda. Dastlab qo'lda yasab, olovda pishirishgan. Bu texnologiya nihoyatda sodda shaklda bo'lgan va keyinchalik bronza davridan boshlab ustalar endilikda kulolchilik charxidan foydalana boshladilar. Kulolchilik charxi kulolchilik sohasidagi eng buyuk yutuqlardan biridir. Chunki sopol buyumlari silliq va tekis yasala boshlandi. Ilk o'rta asrlarning oxirlariga kelib sirlash texnologiyasi paydo bo'lishi sopol buyumlarining sifatini yanada oshirdi. Afrosiyob xarobasidan topilgan sirlangan sopollar bunga yorqin misol bo'ladi. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida O'zbekistonda bir qancha kulolchilik maktablari paydo bo'ldi. Bu maktablarni texnikasi ustoz – shogird an'analari yoki avloddan – avlodga o'tish orqali hali saqlanib kelinmoqda. Bir qancha kulolchilik maktablarning namunalari O'zbekiston amaliy san'at va hurnarmandchilik tarixi davlat muzeyida tashrif buyuruvchilar uchun namoyishga qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboyeva.Z.A.Kulolchilik maktablari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. 2024.B-83
2. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.,1998. B-18
3. Bocharov.S, Francois.V, Sitditkov.A.Glazed pottery of Mediterranean and the black sea region 10 – 18 the centuries volume. K., 2007. P-767
4. Ismoiljonovich.U.S.Kulolchilik tarixining rivojlanish bosqichlari va amaliy bezak san'atining zamonaviy kulolchilik bilan uyg'unligi.№10(100), часть1. 2023.B-406
5. Рыбакова.Б.А.Неолит Северной Евразии.М.,1996. Б-9
6. Ўзбекистон халқ санъати - Албом.Т.,1978. Б-28
7. Боқиев.А, Шайдуллаев.А, Йулдошева.А.3.Окс цивилизацияси.Т., 2015.Б-43

8. Abdulaxatov.U.O'zbek xalqi hunarmandchiligida an'analar(kulolchilik an'analari misolida). G., 2016. B-46
9. Buvayev.V.S. Badiiy kulolchilikda ashyolarda ishlash.N., 2022. B-7